

# IMRS

Institute for Macroeconomic  
and Regional Studies

2024-yil, aprel



## Aholi tomorqa yerlariga outsorsing xizmatini ko'rsatish

*(So'rov asosida tayyorlangan  
tahliliy ma'lumotnoma )*

Makroiqtisodiy va hududiy  
tadqiqotlar instituti

## Aholi tomorqa yerlariga outsorsing xizmatini ko'rsatish

### I. KIRISH

O'zbekistonda tomorqa xo'jaliklari **oziq-ovqat** xavfsizligini ta'minlash hamda **aholi bandligi** oshirishda muhim o'rin egallaydi. Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, tomorqa xo'jaliklari 2023-yilda mamlakatdagi yalpi **dehqonchilik** mahsulotlarining **37,9 foizi**, yalpi **chorvachilik** mahsulotlarining **88,4 foizini** yetishtirib bergan.

Shu bilan birga, tomorqa egalariga yerni haydash, tuproq unumdorligini oshirish, sifatli urug'lik yetkazib berish, **bozorbop** ekin ekish va uni bioo'g'itlash hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ya'ni **bog'dorchilik**, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish, o'zaro kelishuv asosida sotish va tashish kabi xizmatlar ko'rsatilsa, **ishlab chiqarish hajmi** yanada ortishi mumkin. Xalqaro tajribaga ko'ra, mahalliy tomorqachilar yuqori va sifatli organik mahsulot olish uchun outsorsing xizmatidan keng foydalaniladi. **Outsorsing xizmati** mamlakatda **organik mahsulotlar** yetishtirish imkoniyatlarini ham oshiradi.

**Tomorqa outsorsingi** - bu tomorqadan foydalanishda ishlab chiqarishning bir qismini boshqa **ixtisoslashgan tashkilotga** berish orqali sifatga erishish bo'lib, bunday tizim rivojlangan mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

#### *Germaniya tajribasi*

**Germaniyada** qariyb **500 mingta kichik tomorqa (Kleingarten)** mavjud bo'lib, ularga ko'rsatiladigan **outsorsing** xizmati hajmi **15 milliard yevroni** tashkil qiladi. Outsorsing xizmati an'anaviy bog'lar va sabzavotchilik yo'nalishida ommalashib bormoqda. **Industrieverband Garten** uyushmasi kichik tomorqalarga urug'lar, ko'chatlar, mevali daraxt ko'chatlari va barcha turdagi bog'dorchilik anjomlari, asboblari, bog' mebellari va boshqalarni sotish hamda ekin va daraxtlarni parvarishlash xizmatlari jadal rivojlanayotganligini qayd etgan. Mahalliy aholi "**mening bog'im-mening qal'am**" tamoyili bo'yicha kichik tomorqasida eko-yashillik makonini barpo qilishga harakat qiladi.

#### *Angliya tajribasi*

**National Allotment Society London Branch** – Anliyadagi yirik **tomorqa xo'jaligi** uyushmasining filiali, asosan tabiiy xilma-xillikni asrashga xizmat qiladi. Ushbu uyushma Londondagi **740 dan ortiq** kichik

yer egalari hamda **40 mingta** alohida **tomorqaga xizmat** ko'rsatadi. Yil davomida talabgorlarning ehtiyojiga qarab maslahat uchrashuvlari o'tkazadi. Bu uchrashuvlarda huquqiy maslahatdan tortib, ekinni parvarish qilish, ko'kamlamlashtirish, urug'lik yetkazib berishga oid maslahatlar beriladi, shuningdek, tomorqlarga borib xizmat ko'rsatiladi. Ushbu uyushma ijtimoiy tarmoqlar orqali ilg'or tajribalarni almashadi hamda tomorqa egalarini huquqiy jihatdan qullab-quvvatlaydi.

## II. O'ZBEKISTONNING TOMORQA YERLARI SALOHIIYATI

O'zbekistonda 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, **4,9 millionta tomorqa** xo'jaligida **741,2 ming gektar** yer resursi mavjud bo'lib, ushbu maydonning **62,7 foizi (464,7 ming ga)** ekin yerlari, **15,8 foizi (117,2 ming ga)** ko'p yillik daraxtzorlar, **21,5 foizi (159,3 ming ga)** imoratlar bilan band bo'lgan yerlardan iborat.

Jami **464,7 ming** gektar tomorqa ekin yerlaridan **62,6 ming** gektari dalada (aholi punktidan tashqarida), **402,1 ming** gektari bevosita hovlida joylashgan.

*Ma'lumot uchun: O'zbekistondagi **4,9 millionta** tomorqa xo'jaligining **766,8 mingtasi (15,4 foiz)** shaharlarda joylashgan bo'lib, ularning tassarufida **48 ming gektar (6,5 foiz)** yer resursi bor. Ushbu yerlarning **15,9 ming gektari (33,1 foiz)** ekin yerlari, **13,2 ming gektari (27,4 foiz)** ko'p yillik daraxtzorlar, **18,9 ming gektari (39,5 foiz)** imoratlar bilan band bo'lgan yerlardan iborat.*

Tahlillarga ko'ra, o'rtacha **1 ta tomorqa** xo'jaligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida **15 sotixdan**, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida **12 sotixdan**, Navoiy va Samarqand viloyatlarida **11 sotixdan**, Toshkent viloyatida **11 sotixdan**, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida **4-7 sotixdan** ekin yer maydoni to'g'ri keladi.

Mamlakatning **83 ta tumanida** aholi tomorqasidagi ekin yer maydonlari **10 sotixdan 20 sotixgachani** tashkil etadi, ya'ni qishloq tumanlarining **60 foizida tomorqa** xo'jaliklarning ekin yerlari o'rtacha ko'rsatkichi **10 sotixdan 33 sotixgachani** tashkil qiladi (Bu tumanlar kesimida o'rtacha ekin maydoni bo'lib, amalda bu ko'rsatkich yuqori bo'lishi mumkin).

Kegayli, Shumanay, Qorovulbozor, Baxmal, Ko'kdala, Nurobod, Bandixon va Pskent tumanlarida o'rtacha **1 ta aholi** tomorqasidagi ekin yerlarining hajmi **21-33 sotixgacha** bo'lsa, Amudaryo, Chimboy, Qorako'l,

Dehqonobod, Muborak, Mirishkor, Sherobod, Sayxunobod, Bo'ka va Qo'shko'pir tumanlarida esa **20-25 sotixni** tashkil qiladi.

Yuqoridagi tahlillar tomorqa yerlari mahsulot yetishtirish va **qo'shimcha daromad olish** uchun juda qulay imkoniyat ekanligini ko'rsatadi.

### III. TOMORQAGA XIZMAT KO'RSATISHNING JORIY HOLATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-son "**Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**" qaroriga muvofiq tomorqa yer egalari turli xizmat ko'rsatish "Tomorqa xizmati" MChJlar tashkil etilishi belgilangan. O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, **3105** ta "**Tomorqa xizmati**" MChJlar tashkil etilgan va ular jami tomorqa yer egalari **9 foiziga** xizmat ko'rsatgan.

Masalan, **Buxoro** viloyatida **200** ta "**Tomorqa xizmati**" MChJ tuzilgan bo'lib, o'rtacha **1 ta MChJ 2 ming** tomorqaga yoki **216 gektar** yer maydoniga xizmat qilishi kerak. Tumanlar kesimida, o'rtacha **1 ta "Tomorqa xizmati" MChJ G'ijduvonda 3035 ta, Shofirkonda 2117 ta, Olotda 2113 ta Peshkuda 2083 ta** xonadonga xizmat ko'rsatishi kerak bo'lmoqda. **Jizzax** viloyatida **300 ta "Tomorqa xizmati MChJ** tuzilgan bo'lib, o'rtacha **1 ta MChJ 587 ta** tomorqaga yoki **84 gektar** yer maydoniga xizmat qilishi kerak bo'lmoqda (ilova, 1-jadval). Tumanlar kesimida, o'rtacha **1 ta "Tomorqa xizmati" MChJ G'allaorolda 922 ta, Zominda 884 ta, Baxmalda 712 ta, Sh.Rashidov tumanida 655 ta** xonadonga xizmat ko'rsatishi kerak bo'lmoqda. **Sirdaryo** viloyatida **174 ta "Tomorqa xizmati MChJ** tuzilgan bo'lib, o'rtacha **1 ta MChJ 873 ta** tomorqaga yoki **109 gektar** yer maydoniga xizmat qilishi kerak bo'lmoqda (ilova, 2-jadval). Tumanlar kesimida, o'rtacha **1 ta "Tomorqa xizmati" MChJ Boyovutda 1201 ta, Sirdaryoda 1111 ta, Xovosda 1026 ta va Mirzaobodda 1000 ta** xonadonga xizmat ko'rsatishi kerak bo'lmoqda (ilova, 1-jadval).

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, "**Tomorqa xizmati**" MChJlarga qator imtiyozlar berilganiga qaramasdan ular tomorqa yer egalari bilan to'liq bog'lana olmagan (to'liq qamrab o'lmagan). Hattoki, tashkil etilganlari ham aholiga to'liq va malakali xizmat ko'rsata olmayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-martdagi "**Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida yangi zaxiralarni**

**ishga solishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"** gi PQ-115-son qarorida ham juda ko'plab imkoniyatlar qayd etilgan. Tomorqa xizmatining joriy tizimi ushbu imkoniyatlarni yuzaga chiqara oladimi?

#### IV. SO'ROV

Aholi tomorqa yerlaridan samarali foydalanish uchun ularga qanday darajada ko'mak va maslahat shaklidagi xizmatlar ko'rsatilayotganini o'rganish maqsadida **Buxoro, Jizzax, Sirdaryo** viloyatida 239 nafar tomorqa egalari orasidan so'rov o'tkazildi.

So'rov natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Tomorqadan daromad olishda ekin maydonining mavjudligi va uning hajmi alohida o'rin egallaydi. Tomorqa yerining hajmi va unga ekin ekilishi haqidagi savolga respondentlarning katta qismi tomorqa mavjudligi hamda unda **ro'zg'or (65,9 foiz)** va **bozor (29,5 foiz)** uchun **ekin** ekishini qayd etgan.

2. Tomorqa yerining ekin maydoni haqidagi savolga **ishtiroklarning 37,1 foizi 5 sotixgacha, 42,1 foizi 10 sotixgacha** va qolgan **14,2 foizi esa 15-30 sotixgacha** ekanligini qayd etgan. Tomorqa xo'jaligidagi umumiy yer maydonining **30 foizigacha imorat** va **hovli** qurilgan holatlar kuzatildi.

3. Tomorqangiz atrofiga daraxt ekilganmi, degan savolga respondentlarning **86,1 foizi mevali daraxt**, qolganlari boshqa turdagi daraxt ekanligini (asosan,terak) aytgan. So'rov ishtirokchilari ayrim hududlardagi **sho'rlanish darajasi** va **iqlim o'zgarishlari** bilan bog'liq hodisalar ekilgan **daraxtlarning** qurib qolishiga olib kelayotganini ham aytib o'tgan.

4. Qaysi turdagi ekin ekasiz, degan savolga respondentlarning **27,4 foizi** uyda **iste'mol qilish uchun sabzavot** ekishini, **12,5 foizi bozorda sotish** uchun sabzavot ekishini hamda **17 fizi** uning o'rniga yem hashak uchun **beda**, makkajo'xori kabi **ekinlarini** ekishini qayd etgan.

5. Outsorsing xizmatlari asosida sermahsul urug' yetkazib berish, texnika va bozor topishga ko'maklashish tomorqalardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. So'rovda ishtirok etganlarning **43,1 foizi sug'orish uchun** suv ta'minoti yaxshi emasligi, **38,2 foizi infratuzilmaviy** omillar (**urug', texnika, mablag'**) yetishmasligini hamda **5,5 foizi** sotuv qilingan xarajatni qoplamasligini tomorqada ekin ekishdagi asosiy qiyinchiliklar sifatida qayd etgan. Suv ta'minoti bilan bog'liq muammo ayni yoz oylarida vujudga kelib, katta dalalarni sug'orish davrida tomorqa egalarining suvsiz qolib ketish holatlari uchrab turadi.

6. Tomorqa yeridan foydalanishda dehqonlarning ko'p qismi ekin ekish bilan birga **chorva va parrandani** ko'paytirishini (**56,5 foiz**) qayd etgani daromad olishda o'z faoliyatini **diversifikatsiya** qilayotganidan darak beradi. Shuningdek, so'ralganlarning **13,5 foizi** respondentlar umuman chorva va parrandasi yo'q ekanligini qayd etgan.

7. Tomorqaga ekin ekish va chorva qilish uchun dastlabki **mablag'ingiz** bormi, degan savolga so'rovda qatnashganlarning **66,3 foizi mablag'i borligini, 21,1 foizi mablag'i yo'qligini** va **11,2 foizi qarz** olishini qayd etgan.

8. Dehqonlarning **47,8 foizi tomorqaga ekin** ekish va chorva qilish uchun imtiyozlar va subsidiyalar foydalanmaganligini, **11,5 foizi esa imtiyozlardan** xabari yo'qligini bildirgan. Faqatgina **39,3 foizi** mavjud imtiyozlardan foydalanganligini bildirgan.

9. Tomorqadan yuqori daromad olishda ularga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda hududingizda (mahallada) **Tomorqa xizmati MChJ** yoki YaTT bormi, degan savolga respondentlarning **33,2 foizi yo'q**, eshitmaganman (Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich **62 foizni** tashkil qilgan), **20,6 foizi ha bor**, xizmatidan foydalanganman, **21,1 foizi ha bor**, lekin xizmatidan foydalanmaganman, **15,9 foizi tomorqa xizmatiga** ehtiyojim yo'q, **9,5 foizi** agar bo'lsa, xizmatidan foydalanaman, deb javob bergan. Shuningdek, so'rov jarayonida "Tomorqa xizmati" MChJlar ko'p tumanlarda tuman markazida ochilgani kuzatildi. Vaholanki, ularning xizmatiga ko'proq **chekka qishloqdagi tomorqachilar** muhtoj bo'lib turibdi.

10. So'rovda qatnashganlarning **38,2 foizi mini traktorda** yer haydab berish xizmatiga hamda **13,1 foizi zararli hasharotlarga** qarshi kurash, **6,3 foizi issiqxona** qurib berish, **20,3 foizi** artezian qazish va suv chiqarish, **22,1 foizi ekinni o'g'itlash va agronom** xizmati va maslahatiga ehtiyoji borligini qayd etgan.

11. So'rovda qatnashganlarning **27,8 foizi mini motokultivator, 13,7 foizi xashak maydalagich, 23,8 foizi dori purkash apparati** o'zida borligini va ulardan tomorqada foydalanishini qayd etgan.

12. Tomorqadan qancha daromad olasiz, degan savolga respondentlarning **33,4 foizi 3-4 mln.** so'mgacha, **16,4 foizi 5-7 mln.** so'mgacha, **16,5 foizi 8-10 mln.** so'mgacha, **24,1 foizi 15-25 mln.** so'mgacha, deb javob bergan.

13. Tomorqa xizmatini ko'rsatish (yer haydash, ekin ekish, mevali daraxt ekish, chorva boqish) uchun pul to'lay olasizmi, degan savolga respondentlarning **63,2 foizi ha, 27,1 foizi yo'q, 9,7 foizi** tomorqadan sherikchilik asosida hosil olmoqchiman, deb javob bergan.

14. Tomorqa xizmatini ko'rsatish uchun qancha pul to'lay olasiz, degan savolga respondentlarning **48,1 foizi 200 ming so'mgacha**, **11,8 foizi 300 ming so'mgacha**, **6,8 foizi 500 ming so'mgacha**, **13,9 foizi 1 mln. so'mgacha** va **11,3 foizi** olingan **hosilning** bir qismini berish orqali xizmatdan foydalanish mumkinligini aytgan.


## V. TAKLIFLAR

**Yuqoridagi o'rganishlar natijasi har bir qishloq yoki aholi punktining o'zida aholi tomorqa yerlariga **outsorsing** xizmatini ko'rsatuvchi kompaniyalarni shakllantirish orqali ularga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish **zaruriyatini** ko'rsatmoqda** (yerni haydash, tuproq unumdorligini oshirish, bozorbop ekin ekish va unga agrokimyoviy xizmat ko'rsatish, (agar hovlida bog' bo'lsa) bog'dorchilik, o'zaro kelishuv asosida sotish, tashish xizmatlarini ko'rsatish).

Tomorqa xizmati yil davomida kuz-qish, bahor yoz mavsumida uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlash uchun aniq **infratuzilma** sharoitlarini shakllantirish zarur. Shuningdek, "Tomorqa xizmati" MChJ aynan mahallaning o'zida tashkil etilmaganligi tufayli **sifatli xizmat** ko'rsatish yo'lga qo'yilmagani ma'lum bo'ldi. Ya'ni, vegetatsiya davrida ekin ekish, yig'ish va sotish bo'yicha bir vaqtning o'zida yuzlab tomorqalarda outsorsing xizmatini ko'rsatish uchun talab paydo bo'ladi. Agar bu talab o'z vaqtida ko'rsatilmasa, hosil qo'ldan boy berilishi mumkin. Bunda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bir vaqtning o'zida nechta tomorqaga xizmat ko'rsata olish mumkinligini ham mahalliy mutaxassislar jiddiy o'ylab ko'rish kerak.


Quyidagi sxema har bir mahallada, mahalliy tadbirkorlar yoki shu hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar tashabbusi bilan xonadon soni va ekin maydonida kelib chiqib, "**Tomorqa xizmati**" **YaTTlar** tashkil etish orqali sifatli xizmat ko'rsatishni anglatadi.

### **AHOLI TOMORQA YERLARIGA AUTSORSING XIZMATINI KO'RSATISH KOMPANIYASINING SXEMASI**



Yuqorida qayd etilgan **so'rovda** ishtirok etganlarning ko'pchiligi bunday xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga ehtiyoji borligini bildirgan va qizg'in paytda tomorqachilarning talabini tezda qondirish zururligini qayd etgan. O'tkazilgan so'rov va kuzatuvlar natijasiga ko'ra, ko'pgina mahallalarda tomorqa xizmatini ko'rsatish (yer haydab berish) qisman mavjud va **bu tarqoq holda mahalliy tashabbuskor** tomonidan amalga oshirilayotgani ma'lum bo'ldi. Shu sababli, outsorsing xizmatlarini mahallaning o'zida yoki tomorqa xo'jaliklariga yaqin va qulay joyda tizimli ravishda ko'rsatish maqsadga muvofiq. Mahallalarda tomorqaga outsorsing xizmatini ko'rsatish tizimini tashkil etish mahalliy tashabbuskorlarni bosqichma-bosqich yirik xizmat ko'rsatish muassasasiga aylantirishni quyidagi sxema orqali amalga oshirishni tavsiya etamiz:

### **Mahallalarda tomorqaga outsorsing xizmatini ko'rsatish tizimini tashkil etish bosqichlari**



Yuqorida keltirilgan ketma-ketlikda **tomorqa yerlariga xizmat ko'rsatishni** rivojlantirish, ya'ni tomorqaga ekin ekishda mahalliy



ixtisoslashuv, **suv va bozorning** mavjudligi kabi omillarni e'tiborga olgan holda **outsorsing** xizmatini tashkil etish zarur. Xizmat ko'rsatishda aynan ular uchun yetishmayotgan sharoitni shakllantirishga xarakat qilish maqsadga muvofiq (ilova).

Jumladan, bunda:

- tomorqa xizmatini ko'rsatish tuman markazlarida emas, balki bevosita mahallalarning o'zida ochish maqsadga muvofiq. Tomorqadan uzoqda ochilgan xizmat ko'rsatish korxonasi o'z vaqtida kelib xizmat ko'rsata olmaydi va oqibatda mo'l hosil olinmay qolishi mumkin. Shuningdek, ayrim mahallalarda tomorqa yerlarining umumiy maydoni **185 gektarni** tashkil etadi va bu xizmat ko'rsatish uchun "**kerakli hajm**" mavjudligidan darak beradi;

- "Tomorqa xizmati" YaTTlarga mahalla idorasi va hududlarda bo'sh turgan binolardan tekinga foydalanish huquqini berish;

- Keyingi bosqichda esa "Tomorqa xizmati" YaTTlar tomonidan muzlatkichli omborxonalar, qadoqlash, quritish, qayta ishlash sexlari barpo etish, texnika va inventarlarni saqlash uchun hamda yetishtirilgan mahsulotni sotish uchun mahalla hududidan dala do'kon qurish uchun yer maydoni ajratish;

- "Tomorqa xizmati" YaTTlarga **5** yil davomida ayrim turdagi soliq to'lovlari uchun imtiyozlar berish (yer maydoni uchun yer solig'i, bino-inshoatlar uchun mol-mulk solig'i);

- «Online-mahalla» platformasida tashkil etilib, unda tomorqadagi barcha ma'lumotlar bazasini shakllantirish tizimini yo'lga qo'yish (bunda: tomorqa soni, ekin maydoni, ekin turi, yig'ib olingan mahsulot miqdori, chorva mol bosh soni, ishlab chiqilgan chorvachilik mahsulotlari va hokazolar).

**Komiljon Qo'ziyev,**  
**MHTI loyiha rahbari**  
**O'rozali Shonazarov,**  
**MHTI bosh ilmiy xodimi**

## ILOVALAR

1-jadval

### Buxoro viloyati tumanlarida "Tomorqa xizmati" MChJlar faoliyati to'g'risida MA'LUMOT

T/r	Tumanlar nomi	Tomorqa soni	Tomorqa maydoni (ga)	Tomorqa xizmati MChJlar soni	Jami tuzilgan shartnoma soni	O'rtacha 1 ta "Tomorqa xizmat" MChJga to'g'ri keladi			
						soni	yer maydoni (ga)	shartnoma tuzish	
								soni	foiz
<b>Jami viloyat bo'yicha</b>		<b>401327</b>	<b>43101</b>	<b>200</b>	<b>4515</b>	<b>2007</b>	<b>216</b>	<b>377</b>	<b>1,1%</b>
1	Olot	21125	4471	10	900	2113	447	90	<b>4,3%</b>
2	Buxoro	43332	3472	24	531	1806	145	22	<b>1,2%</b>
3	Vobkent	30809	2853	22	451	1400	130	20	<b>1,5%</b>
4	G'ijduvon	63727	5323	21	436	3035	253	21	<b>0,7%</b>
5	Jondor	40815	4107	24	317	1701	171	13	<b>0,8%</b>
6	Kogon	20928	2122	15	207	1395	141	14	<b>1,0%</b>
7	Qorako'l	31608	6862	20	118	1580	343	6	<b>0,4%</b>
8	Peshku	31241	4594	15	206	2083	306	14	<b>0,7%</b>
9	Romitan	32944	3681	24	391	1373	153	16	<b>1,2%</b>
10	Shofirkon	42344	4859	20	209	2117	243	10	<b>0,5%</b>
11	Qoravul bozor	4530	364	5	750	906	73	150	<b>16,6%</b>

*Manba: O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ma'lumotlari*

2-jadval

### Jizzax viloyati tumanlarida "Tomorqa xizmati" MChJlar faoliyati to'g'risida MA'LUMOT

T/r	Tumanlar nomi	Tomorqa soni	Tomorqa maydoni (ga)	Tomorqa xizmati MChJlar soni	Jami tuzilgan shartnoma soni	O'rtacha 1 ta "Tomorqa xizmat" MChJga to'g'ri keladi			
						soni	yer maydoni (ga)	shartnoma tuzish	
								soni	foiz
<b>Jami viloyat bo'yicha</b>		<b>176147</b>	<b>25186</b>	<b>300</b>	<b>11720</b>	<b>587</b>	<b>84</b>	<b>39</b>	<b>6,7%</b>
1	Arnasoy	5364	739	16	1912	335	46	120	<b>35,6%</b>
2	Baxmal	25625	5916	36	3407	712	164	95	<b>13,3%</b>
3	G'allaorol	27651	4317	30	226	922	144	8	<b>0,8%</b>
4	Sh.Rashidov	31452	2079	48	2466	655	43	51	<b>7,8%</b>
5	Do'stlik	6938	843	15	697	463	56	46	<b>10,0%</b>
6	Zarbdor	10106	2354	25	381	404	94	15	<b>3,8%</b>
7	Zomin	25334	3176	30	321	844	106	11	<b>1,3%</b>
8	Zafarobod	5391	750	11	571	490	68	52	<b>10,6%</b>
9	Mirzacho'l	6606	804	15	784	440	54	52	<b>11,9%</b>
10	Paxtakor	6036	806	14		431	58		
11	Forish	8486	1674	30	579	283	56	19	<b>6,8%</b>
12	Jizzax	12016	514	20		601	26		
13	Yangiobod	5142	1215	10	376	514	122	38	<b>7,3%</b>

*Manba: O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ma'lumotlari*

3-jadval

### Sirdaryo viloyati tumanlarida "Tomorqa xizmati" MChJlar faoliyati to'g'risida MA'LUMOT

T/r	Hudud nomi	Tomorqa egalari soni	Tomorqa maydoni (ga)	Tomorqa xizmati MChJlar soni	Jami tuzilgan shartnoma soni	O'rtacha 1 ta "Tomorqa xizmat" MChJga to'g'ri keladi			
						soni	maydoni (ga)	shartnoma tuzish	
								soni	foiz
<b>Jami viloyat bo'yicha</b>		<b>151848</b>	<b>18926</b>	<b>174</b>	<b>12434</b>	<b>873</b>	<b>109</b>	<b>71</b>	<b>8,2%</b>
1	Boyovut	24022	3670	20	2283	1201	183	114	<b>9,5%</b>
2	Guliston	16809	2128	17	1975	989	125	116	<b>11,7%</b>
3	Mirzaobod	15004	2419	15	1293	1000	161	86	<b>8,6%</b>
4	Oqoltin	6828	632	17	1075	402	37	63	<b>15,7%</b>
5	Sardoba	10132	1443	37	1264	274	39	34	<b>12,5%</b>
6	Sayxunobod	17076	3340	30	2968	569	111	99	<b>17,4%</b>
7	Sirdaryo	27769	3161	25	1303	1111	126	52	<b>4,7%</b>
8	Xovos	13337	1110	13	273	1026	85	21	<b>2,0%</b>

Manba: O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ma'lumotlari

### Tomorqada bodom yetishtirish bo'yicha tavsiyaviy hisoblar:

Tomorqada **bodomning 20 dan ortiq** turi yetishtirish mumkin. Bodom **60 yilgacha** hosil beradi. Tomorqada **1 ta ko'chatdan** o'rtacha **8-10 kg** (ko'pi bilan **15 kg gacha**, eng kami **4 kg**) **hosil** olish mumkin. **10 sotix** tomorqa er maydonida o'rtacha **75 tup ko'chat** ekish mumkin. Ulardan **600-900 kilogramm** oraliq'ida hosil olish mumkin. **1 kg bodomning** bozor narxi **60-100 ming so'm** atrofida bo'lsa, u holda **36-90 mln so'mgacha** daromad olish mumkin bo'ladi. **20 sotix** tomorqa er maydonida o'rtacha **125 tup ko'chat ekish** mumkin. Ulardan **1-1,5 tonnagacha** hosil olish mumkin. **1 kg bodomning bozor narxi 60-100 ming so'm** atrofida bo'lsa, u holda **43-108 mln so'mgacha** daromad olish mumkin bo'ladi.

Quyida o'rtacha **20 sotix** tomorqadan olish mumkin bo'lgan daromad hisob-kitob qilib ko'rildi.

#### 1-variant

### Buxoro viloyatida yil davomida o'rtacha 20 sotix tomorqadan olish mumkin bo'lgan daromad

Yil mavsumi	Ekin turi	Yalpi hosil (tonna)	1 tonna mahsulotning ulgurji sotish narxi	Jami xarajat	Jami daromad	Sof foyda (+,-)
kuz-qish	ko'kat (sarimsoqpiyoz.)	1,0	15 000	2 000	15 000	13 000
bahor-yoz	pomidor	4,0	4 000	5 000	16 000	11 000
yoz-kuz	makka-silos (chorva ozuqasi)	9,0	600	700	5 400	4 700
<b>Jami yil davomida</b>		<b>x</b>	<b>x</b>	<b>7 700</b>	<b>36 400</b>	<b>28 700</b>
Tomorqa chetiga ekilgan <b>60 tup o'rik</b>		2,0	10 000	500	20 000	19 500
<b>Hammasi</b>		<b>x</b>	<b>x</b>	<b>8 200</b>	<b>56 400</b>	<b>48 200</b>

\*Izoh: tomorqa chetiga hududning tuproq va iqlimiga mos mevali daraxt ekiladi (bodom, o'rik, gilos, olcha, olma, uzum, anor, xurmo, yong'oq, behi).

#### 2-variant

### Jizzax viloyatida yil davomida o'rtacha 20 sotix tomorqadan olish mumkin bo'lgan daromad

Yil mavsumi	Ekin turi	Yalpi hosil (tonna)	1 tonna mahsulotning ulgurji sotish narxi	Jami xarajat	Jami daromad	Sof foyda (+,-)
kuz-qish	ko'kat (ismaloq)	3,0	1 700	1 500	5 100	3 600
bahor-yoz	kartoshka	5,0	4 500	5 000	22 500	17 500
yoz-kuz	makka-silos (chorva ozuqasi)	8,0	600	700	4 800	4 100
<b>Jami yil davomida</b>		<b>x</b>	<b>x</b>	<b>7 200</b>	<b>32 400</b>	<b>25 200</b>
Tomorqa chetiga ekilgan 60 tup bodom		0,6	60 000	500	36 000	35 500
<b>Hammasi</b>		<b>x</b>	<b>x</b>	<b>7 700</b>	<b>68 400</b>	<b>60 700</b>

*\*Izoh: tomorqa chetiga hududning tuproq va iqlimiga mos mevali daraxt ekiladi (bodom, o'rik, gilos, olcha, olma, uzum, anor, xurmo, yong'oq, behi). Bodomni yarim karlik shaklida ekish nazarda tutilgan.*

### 3-variant

#### Sirdaryo viloyatida yil davomida o'rtacha 20 sotix tomorqadan olish mumkin bo'lgan daromad

Yil mavsumi	Ekin turi	Yalpi hosil (tonna)	1 tonna mahsulotning ulgurji sotish narxi	Jami xarajat	Jami daromad	Sof foyda (+,-)
kuz-qish	ko'kat (ukrop, kashnich ... ..)	3,0	1 800	1 500	5 400	3 900
bahor-yoz	pomidor	4,0	4 000	5 000	16 000	11 000
yoz-kuz	makka-silos (chorva ozuqasi)	8,0	700	700	5 600	4 900
<b>Jami yil davomida</b>		<b>x</b>	<b>x</b>	<b>7 200</b>	<b>27 000</b>	<b>19 800</b>
Tomorqa chetiga ekilgan 80 tup shpanka-olcha		2,4	10 000	500	24 000	23 500
<b>Hammasi</b>		<b>x</b>	<b>x</b>	<b>7 700</b>	<b>51 000</b>	<b>43 300</b>

*\*Izoh: tomorqa chetiga hududning tuproq va iqlimiga mos mevali daraxt ekiladi (bodom, o'rik, gilos, olcha, olma, uzum, anor, xurmo, yong'oq, behi).*

Yuqoridagi hisob-kitoblar tavsiyaviy ko'rinishga ega amaliyotda bundan yuqori yoki past bo'lishi mumkin.